

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeovich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI VA ULAR EVOLYUTSIYASI

ORCID: 0000-0002-1568-2556

Umarov Abduvaxob Tursunovich

O'zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti dekani

Annotatsiya: Maqolada mintaqalarda barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Barqaror rivojlantirish borasidagi etakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy taqqoslangan, ushbu nazariyalarning rivojlanish evolyusiyasi va tendensiyalari aniqlangan. Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning zamonaviy konsepsiyasi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: mintaqalarning barqaror rivojlanish konsepsiyasi, barqaror rivojlanish bo'yicha nazariy yondashuvlar, barqaror rivojlanish bosqichlari, barqaror rivojlanishning zamonaviy konsepsiyasi.

Abstract: In the article the theoretical foundations of providing sustainable economic development of regions are studied. The comparative analysis of scientific views about sustainable development of leading economists was conducted, the evolution and development trends of these theories are determined. The modern concept of sustainable development of regions is analyzed.

Key words: concept of sustainable development of regions, theoretical approaches to sustainable development, stages of sustainable development, modern concept of sustainable development.

Аннотация: В статье изучен теоретические основы обеспечения устойчивого экономического развития регионов. Сопоставлен научные взгляды устойчивого развития ведущих экономистов, определены эволюция и тенденции развития этих теорий. Анализирован современная концепция устойчивого развития регионов.

Ключевые слова: концепция устойчивого развития регионов, теоретические подходы к устойчивому развитию, этапы устойчивого развития, современная концепция устойчивого развития.

KIRISH

XX asrning oxirgi o'n yilligi va XXI asrning boshlaridan jahonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, mintaqalar iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar soni keskin ortdi. Jumladan, sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar bilan birgalikda bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida ham barqaror rivojlanishga erishish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Natijada aksariyat mamlakatlarning hukumati tomonidan mamlakatda barqaror rivojlanish dasturlarini amalga oshirish va unga erishishni ta'minlash bo'yicha ishchi guruhlar tashkil etildi. O'zbekistonda ham boshqa mamlakatlar singari bu kabi ishlar amalga oshirildi[1].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning nazariy asoslarini tahlil qilishda avvalo "mintaqa" iqtisodiy kategoriyasining mazmun-mohiyatini yoritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Iqtisodiy adabiyotda uzoq yillardan buyon mintaqalar iqtisodiyotining rivojlanish ko'rsatkichlarini baholashning ilmiy-uslubiy asoslari nufuzli xalqaro tashkilotlari, etakchi iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarining e'tibor markazida bo'lib kelgan. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olimlardan A.J. Taylor[2], E.M. Xuver[3], M.R. Straszem[4] kabilarning ilmiy izlanishlarida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalari yoritilgan.

Shu bilan birgalikda, maxalliy iqtisodchi olimlardan T.M. Axmedov[5], B.T. Salimov[6], Sh.X. Nazarov[7], A.M. Sodiqov[8]larning ilmiy asarlarida respublikamiz mintaqalari iqtisodiyotiga oid bo'lgan nazariy izlanishlar amalga oshirilib, turli ilmiy qarashlar ishlab chiqilgan.



Iqtisodiy adabiyotda mintaqalarni barqaror rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy qarashlar o'tgan asrning 20-yillaridan shakllana boshlagan. Jumladan, L. Valras[9], R. Xiks[10], P. Samuelson[11] kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida iqtisodiy tizimlarning barqarorligini ta'minlash ilmiy muammosiga ustuvorlik qaratilgan. Ushbu olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda raqobatlashgan bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonlarining bozor muvozanatini ta'minlashda barqarorlikning boshqa iqtisodiy jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi tadqiq etilgan. Shu bilan birgalikda, barqarorlikni ta'minlash muammosining iqtisodiy va siyosiy jihatlarini tahlil qilinib, mamlakat yoki mintaqa iqtisodiy tizimining barqarorligi sodir bo'layotgan iqtisodiy munosabatlarning barqarorligi bilan bog'liqligi asoslangan.

TADQIQOT METODIKASI

Tadqiqot jarayonida guruhlash, tizimli yondashuv, nazariy va amaliy o'rganish, analiz va sintez, qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.

Mamlakatlar yoki turli mintaqalar kesimida barqaror rivojlanishni ta'minlash masalalari intitusional nazariyalardagi tashkiliy masalalarga bag'ishlangan ilmiy qarashlarda ham o'z aksini topadi. Ushbu nazariyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashning zamonaviy nazariyalarini shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi[12].

Iqtisodiy adabiyotda barqaror rivojlanish nazariyasining so'ngi uchinchi bosqichi uchun xos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy qarashlarni tahlil etish asosida ularni quyidagi tartibda guruhlashni amalga oshirdik:

- birinchi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barqarorligini mamlakat yoki mintaqaning xavfsizligi, ishonchliligi, yaxlitligi va mustaqilligi orqali tushuntirishga qaratilgan ilmiy qarashlar. Jumladan, L.I. Abalkin, A. Livshis, T.M. Konoplyanik, D.V. Gordienka kabi iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida bunday yondashuvlar namoyon bo'ladi[13]. Maxalliy iqtisodchi olimlardan U.A. Madraximov tadqiqotlari ham aynan mazkur guruhga mansub bo'lib, uning fikricha, "iqtisodiy o'sish sifati ijtimoiy barqarorlik bilan birga, ekologik barqarorlikni ta'minlovchi omillar samaradorligini ham o'z ichiga oladi va ular barqaror o'sish sifati oshishiga multiplikativ ta'sir qiladi. O'sish sifatining ko'p omilli ekanligini inobatga olib, ushbu omillarning soha va tarmoqlar kesimida natijaviy jihatlarni kompleks tarzda tadqiq etish lozim"[14]. Mazkur yondashuvda mintaqaning yagona tizim sifatidagi barqarorligi uni tashkil etuvchi turli elementlari, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy va tashkiliy munosabatlar, turli ichki va tashqi bosimlarga bardoshlilik bilan tavsiflanadi. Bunda mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimining barqarorligini tushuntirishda uning ishonchliligi, xavfsizligi, ishonchliligi kabi xususiyatlariga e'tibor qaratilgan.

- ikkinchi guruh olimlari tomonidan barqaror rivojlanish iqtisodiy kategoriyasining mazmunini tushuntirishda vaqt omiliga ustuvorlik qaratilishi bilan xarakterlanadi. N.F. Reymer, M. Blaug, A.G. Shelomenseva, V.D. Kalashnikova kabi iqtisodchilarning ilmiy izlanishlarida mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy tizimining barqarorligi ma'lum bir vaqt davomida undagi erishilgan ijobiy tendensiyalarning saqlanib turishi bilan izohlanadi[15]. Shunga o'xshash ilmiy xulosalar maxalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham aksini topadi. Jumladan, Yu.Muxammedov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda iqtisodiy o'sish vaqt bilan bog'liq holda omillar o'zgarishi asosida qisqa

(1-3 yil), o'rta (3-5 yil) va uzoq (5-10 yil) muddatlarga ajratilib o'rganiladi. Qisqa muddatli iqtisodiy o'sishni baholashda mehnat va kapital omillaridan foydalanilsa, uzoq muddatda esa texnologik va tarkibiy o'zgarishlar hisobga olinadi[16]. A. Vaxobov esa 5,0 foiz va undan yuqori o'sish ko'rsatkichlariga erishilgan davr barqaror iqtisodiy o'sish sifatida qaralishi[17] ta'kidlagan.

- uchinchi yondashuvda mintaqaning barqarorligi sifatida undagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda dinamiklik muvozanatni saqlash imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi. V.A. Kretinin va E.S. Bodryashovlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mintaqa xo'jaligi tizimining iqtisodiy barqarorligi unga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarning o'zaro teng muvozanatli dinamikligini ta'minlashda aks etadi, degan xulosalar olingan[20]. Bunda dinamik muvozanatlilikni ta'minlash deyilganda mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillarni inobatga olgan holda, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini saqlab qolish nazarda tutilgan. Maxalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida ham shunga o'xshash ilmiy xulosalar olingan. Jumladan, T. Shodiev iqtisodiy o'sishga ta'sir ko'rsatuvchi axborot texnologiyalari, aholi savodxonligi omillari ijtimoiy iqtisodiy tizimning samarali amal qilishini ta'minlaydi[19], degan g'oyani ilgari surgan bo'lsa, I. Qayumova esa innovasiyalar, biznes muhiti va tadbirkorlik sharoiti, axborot kommunikasiya tizimi va ta'lim darajasi kabi omillarga ustuvorlik qaratgan[20]. S. Chepel esa yuqoridagi maxalliy iqtisodchi olimlardan farqli o'laroq, aholi savodxonligi, ishbilarmonlik muhiti, mintaqadagi davlat institutlarining mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim omillari sifatida baholaydi[21].

Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish asosida quyidagi ilmiy xulosalar olindi:




- birinchi, mintaqaning barqaror rivojlanishi – bu keyingi avlod vakillari uchun qo‘shicha xarajatlarni keltirib chiqarishini oldini olishga qaratilgan tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan holda iqtisodiy o‘shishga erishishni nazarda tutadi;

- ikkinchi, mintaqaning barqaror rivojlanishi – bu moddiy ne‘matlarni doimiy, uzluksiz ravishda odatiy yoki kengaytirilgan tarzda takror ishlab chiqarish jarayonlarini samarali tashkil etish orqali kelajak avlod uchun mintaqaning ishlab chiqarish-iqtisodiy salohiyatini yuqori darajada saqlab qolishga qaratilgan rivojlanish shakli hisoblanadi;

- uchinchi, mintaqaning barqaror rivojlanishi – bu mintaqadagi tabiiy va iqtisodiy ofatlarning salbiy oqibatlarini minimallashtirgan holda, turli avlodlar o‘rtasidagi tashqi ta’sirni maksimallashtirishga qaratilgan rivojlanishni anglatadi.

Fikrimizcha, mintaqalarni barqaror rivojlantirish bugungi kunda nafaqat ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar balki, innovasion omillar bilan ham bog‘liq hisoblanadi. Jumladan, bugungi kunda innovasiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birgalikda uzoq muddatli istiqbolda barqaror rivojlanishga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi vaziyatni inobatga olgan holda, keyingi yillarda mamlakatimizda mintaqalarni barqaror rivojlantirishda ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik va innovasion omillarni o‘z ichiga olgan barqaror rivojlanish konsepsiyalarini amaliyotga joriy etilishini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bunda mamlakatimiz mintaqalarini barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmiga asoslanish lozim bo‘ladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Mintaqalarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirishning zamonaviy mexanizmi [22].



Taklif etilayotgan mexanizm har tomonlama mukammal bo'lib, u quyidagi to'rt yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

birinchi, ijtimoiy yo'nalishda:

- ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish;
- ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash va qamrov darajasini oshirish;
- aholi bandligini qo'llab-quvvatlash va ularning daromadlarini oshirish;

ikkinchi, iqtisodiy yo'nalishda:

- sog'lom raqobat va qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish;
- iqtisodiyot tarmoqlariga investisiyalarni keng jalb qilish;
- import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirish;

uchinchi, innovasion yo'nalishda:

- iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaga innovasiyalarni joriy etishni kengaytirish;
- bilimga asoslangan iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tish;
- moliyaviy va yashil investisiyalar hisobidan mintaqaning innovasion salohiyatini rivojlantirish;

va nihiyat to'rtinchi, ekologik yo'nalishda:

- ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish;
- iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich yashil iqtisodiyotga o'tkazish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida va ijtimoiy sohada muqobil energiyadan foydalanishni rag'batlantirish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bildirilgan takliflarga asoslangan holda, mamlakatimizda mintaqalarni barqaror rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish orqali uzoq muddatli istiqbolda nafaqat mintaqalar, balki, yaxlit mamlakatimiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishiladi. Jumladan, iqtisodiyot tarmoqlarini bilimga asoslangan, yashil iqtisodiyotga o'zkazish jadallashib, yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi va tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳасидаги миллий мақсад ва вазифаларни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 841-сон қарори. 20.10.2018 й. <https://lex.uz/docs/4013356>
2. Armstrong, J. Taylor. Regional economics and policy. 3rd edition. Willey Blackwell Publisher, 2010. – 448 p.
3. Hoover, Edgar M. and Giarratani, Frank. An Introduction to Regional Economics. Web Book of Regional Science. 4. – 2020. – 368 pp.
4. Peter Mieszkowski and Mahlon R. Wtraszheim (eds.) Current Issue in Urban Economics. – Baltimore: John Hopkins University Press. 1979. – 422 pp
5. Ахмедов Т.М. Регулирования территориальной организации производительных сил и комплексное развитие регионов Узбекистана. – Т.: Фан, 1992. с. 186
6. Салимов Б.Т. Моделирование использования и развития производственного потенциала региона. – Т.: Ўқитувчи – 1995. – с. 186
7. Назаров Ш.Х. Совершенствование методологических основ повышения конкурентоспособности регионов Узбекистана. Автореф. дисс. док. экон. наук. – Т.: ИПМИ, 2016. с. 36
8. Садыков А.М. Ўзбекистон минтақаларини ижтимоий-иқтисодий ривожланиши ва уни тартибга солиш механизмлари. Иқт. фан. док. дисс. – Т.: ЎзМУ, 2006. 42 б.
9. Вальрас Л. Элементы чистой политической экономии. –М.: Изограф, 2000. – 448 с.
10. Хикс Дж. Р. Основания экономики благосостояния // Вехи экономической мысли. Том 4. Экономика благосостояния и общественный выбор / Под. общ. ред. А.П. Заостровцева. – СПб.: Экономическая школа, 2004 – 568 с.
11. Самуэльсон П., Нордхаус В. Экономика. – М.: Вильямс, 2014. 1360 с. – ISBN 978-5-8459-1714-0.
12. Шумпетер Й. Теория экономического развития: Пер. с нем. – М.: Прогресс, 1982. – 401 с.
13. Гершанок Г.А. Формирования системы устойчивого развития локальных территорий на основе оценки социально-экономической и экологической емкости / Г.А. Гершанок. – М.: Экономика, 2006. – 418 с.
14. Мадрахимов У.А. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш сифатини ошириш йўллари. И.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т., 2017, 71 б.
15. Вечкаллов Г. Макроэкономика, / Г. Вечкаллов, Г. Вечкалова. 2-е изд. – СПб.: Питер, 2004. – с. 280
16. Мухаммедов Ю. Барқарор ижтимоий-иқтисодий ўсишнинг омиллари ва эконометрик моделлари (Ўзбекистон Республикаси мисолида): и.ф.д. илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. ТДИУ. – Т., 2006. – 23 б.
17. Вахобов А. Зайнитдинова У. Барқарор иқтисодий ўсиш омиллари / Бозор, пул ва кредит – Т., 2011, № 6, 38-42 б.
18. Блауберг И.В, Становление и сущность системного подхода / И.В. Блауберг, Э.Г. Юдин. – М.: Наука, 1973. – 270 с.



19. Шодиев Т.Ш. Ишлаб чиқаришни модернизациялаш, интеллектуаллаштириш ва диверсификациялаш асосида иқтисодий ўсиш сифатини ошириш / “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали, Т.: 2011 йил сентябрь
20. Каюмова И.О. Ўзбекистонда иқтисодий ривожланишнинг янги сифат босқичи жараёнларини эконометрик тадқиқоти. Иқт. фан. док. дис. – Т.: 2012. -289-б.
21. Экономический рост и инновации: теория, практика и моделирование. // Колл. авт. под общей редакцией С.Чепель. – Т.: 2010; Влияние экономического роста на сокращение доли малообеспеченного населения Узбекистана. / Колл. авт. под ред. С.Чепель. – Т.: 2012.
22. Муаллиф ишланмаси.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

